

YASHIL IQTISODIY O'TISH DAVRIDA BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Badirova Gavhar Shakirjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

gavhar.badirova@gmail.com

+99893 083 50 13

Annotatsiya. *Yashil iqtisodiyotga o'tish global miqyosda dolzarb bo'lib, biznes subyektlarini moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlarini talab qiladi. Ushbu maqolada O'zbekiston va xalqaro tajribalar asosida yashil moliyalashtirishning asosiy mexanizmlari tahlil qilingan. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun o'tish moliyasi, yashil obligatsiyalar va xususiy sektor investitsiyalarining roli ko'rib chiqilgan. Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va Global ekologik fondi kabi tashkilotlarning yondashuvlari tahlil qilinib, O'zbekiston uchun istiqbolli moliyaviy strategiyalar tavsiya etilgan.*

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini oshirish masalalari ham tahlil qilingan bo'lib, global iqlim o'zgarishi va ekologik barqarorlik sharoitida moliyaviy resurslarni jalb etish, ularni yo'naltirish va innovatsion yondashuvlar asosida taqsimlashning ahamiyati yoritilgan. Xalqaro tajriba, statistik ma'lumotlar va tahliliy yondashuvlar asosida O'zbekistonda mavjud moliyalashtirish amaliyotlari va yashil iqtisodiy o'tish tendensiyalari tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, moliyalashtirish mexanizmlari, yashil obligatsiyalar, xususiy sektor, o'tish moliyasi.*

KIRISH

Yashil iqtisodiyotga o'tish global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ham bu yo'nalishda faol siyosat yuritib, 2019-yil 4-oktabrda Prezidentning PQ-4477-sonli qarori bilan 2019–2030 yillarga mo'ljallangan "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini qabul qilgan. Ushbu strategiya doirasida energiya samaradorligini oshirish, issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish maqsad qilingan [1]. Ushbu jarayonda tadbirkorlik subyektlari muhim rol o'ynaydi va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ishonchliligi va samaradorligi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, "yashil" obligatsiyalar chiqarish va ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus fondlar tashkil etish orqali investitsiyalarni jalb qilish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish ko'zda tutilgan [2].

Ushbu tashabbuslar O'zbekistonning barqaror rivojlanish yo'lidagi sa'y-harakatlarini aks ettirib, "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, biznes subyektlarini moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati va istiqbollari tahlil qilinadi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni o'z ichiga oladi. Biroq, bu jarayon katta moliyaviy resurslarni talab qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil loyihalarni amalga oshirish uchun davlat-xususiy sheriklik, yashil obligatsiyalar, xalqaro moliya institutlari va o'tish moliyasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega [3].

Shu bilan birga, "yashil" iqtisodiyotga o'tishda ba'zi muammolar mavjud. Masalan, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi Yevropa davlatlariga nisbatan past bo'lib, bu ekologik jihatdan barqaror o'sishga to'sqinlik qilmoqda. O'zbekiston sanoatida energiya iste'moli yuqori darajada bo'lib, resurs tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish uchun institutsional va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish zarur [4].

O'zbekiston "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonida muhim islohotlarni amalga oshirmoqda. Davlat strategiyalari, xalqaro majburiyatlar va qayta tiklanadigan energiya salohiyati ushbu jarayonda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, moliyalashtirish tizimlarini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash "yashil" iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kelajakda O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, ekologik texnologiyalarni joriy etish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'nalishda samarali moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi barqaror rivojlanish va ekologik muammolarni hal etish maqsadida yashil iqtisodiyotga o'tishni strategik yo'nalish sifatida belgilagan. Bu jarayonda biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida biznes subyektlarini moliyalashtirishning dolzarbligi, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi va vazifasi xalqaro tajribaga asoslanib, O'zbekiston uchun samarali moliyaviy vositalarni aniqlash, yashil iqtisodiy o'tish jarayonida moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilish va yashil obligatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tahliliy va statistik yondashuvlar qo'llanildi. Xalqaro va milliy statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar hamda rasmiy hisobotlar asosida moliyalashtirish mexanizmlari baholandi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), jahon banki va global ekologik fondi kabi tashkilotlarning hisobotlari asosida O'zbekiston va xorij tajribasi taqqoslandi.

ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot (green economy) konsepsiyasi global darajada iqlim o'zgarishi, atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanishga javoban shakllangan muhim iqtisodiy modelga aylandi. BMTning atrof-muhit dasturi

ta'kidlaganidek, yashil iqtisodiyot "ijtimoiy tenglik va ekologik xavfsizlikni ta'minlagan holda, iqtisodiy o'sishga yordam beruvchi past uglerodli, resurs tejamkor va inklyuziv iqtisodiyotdir" [5].

Yashil iqtisodiyotga o'tishda biznes subyektlari, ayniqsa kichik va o'rta korxonalar muhim rol o'ynaydi. Biroq, ularning yashil texnologiyalar va ekologik loyihalarga sarmoya kiritish imkoniyatlari ko'p hollarda moliyalashtirish mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmagani tufayli cheklangan [6].

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlar yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus moliyaviy instrumentlar joriy etgan. Masalan, Yevropa Ittifoqi "European Green Deal" orqali yashil obligatsiyalar, grantlar va imtiyozli kreditlar tizimini kengaytirmoqda. Germaniyada "KfW Development Bank" orqali yashil loyihalarni moliyalashtirishda yillik 40 milliard yevrodan ortiq mablag' yo'naltirilmogda. Xitoyda esa yashil kreditlar hajmi 2021-yil oxiriga kelib 2.6 trillion dollarni tashkil etdi, bu umumiy bank kreditlarining 10 foizidan ko'prog'ini tashkil qiladi [7].

Shuningdek, xorijiy adabiyotlarda yashil moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini oshirish uchun huquqiy va institutsional muhitni kuchaytirish [8], yashil standartlar va sertifikatlar joriy etish, soliq imtiyozlari va davlat kafolatlari orqali xususiy sarmoyalarni jalb qilish [9] muhim deb sanalgan. Umuman olganda, xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tish uchun biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli va innovatsion yondashuvlar zarur. Shu sababli, ushbu yo'nalishda O'zbekiston sharoitiga mos, samarali moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham yashil iqtisodiyot va uni moliyalashtirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mamatov Sh.A. o'z tadqiqotida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda bank tizimi, investitsiya resurslari va davlat kafolatlarining o'rnini haqida fikr bildirgan [10]. Karimov A.X. va boshqalar (2022) esa O'zbekistonda yashil energiyaga o'tishni rag'batlantirish uchun imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va soliq yengilliklari kabi moliyaviy mexanizmlarni tavsiya qilganlar [11]. Yana bir muhim manba – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining (2023) hisobotlarida yashil investitsiyalarni rag'batlantirish uchun Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik alohida ta'kidlangan [12].

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining 2023–2030-yillarda Yashil energiya strategiyasi"da quyosh va shamol energetikasiga doir loyihalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik, xalqaro grantlar va yashil obligatsiyalardan foydalanish taklif etilgan [13].

Biroq, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishni moliyalashtirish mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun ekologik jihatdan toza loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy resurslarga erkin kirish imkoniyati cheklangan. Shu bois, ushbu yo'nalishda xorijiy tajribalardan kelib chiqib, milliy sharoitlarga moslashgan samarali moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida barqarorlikni ta'minlash bilan bir qatorda, yangi moliyaviy yondashuvlarni ham talab etmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, hozirda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlaydigan moliyaviy vositalar cheklangan va ko'proq xalqaro donorlar tomonidan taklif qilinadi [8, 10]. Masalan, O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki va Jahon banki kabi tashkilotlar orqali ayrim yashil energiya loyihalari moliyalashtirilmoqda [12]. Shuningdek, mamlakatda yashil obligatsiyalar, ijtimoiy obligatsiyalar yoki maxsus "eko-kredit"lar kabi innovatsion moliyalashtirish vositalari hali keng tatbiq etilmagan [11].

Kichik va o'rta biznes vakillarining ekologik loyihalar uchun zarur moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati cheklangan [10, 12]. Bu holat, ayniqsa, moliyaviy vositalarning yetishmasligi va ekologik investitsiyalarning yuqori tavakkalchiligi bilan bog'liq. Tijorat banklarida ekologik tavakkalchilikni baholash mezonlari ishlab chiqilmaganligi muammoni yanada chuqurlashtirmoqda [6, 11]. Davlat tomonidan ekologik loyihalar uchun kafillik va imtiyozlarning yetarlicha taqdim etilmasligi kichik va o'rta bizneslar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [12].

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarda yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish uchun yashil obligatsiyalar chiqarish (Yevropa Ittifoqi, Xitoy), soliq yengilliklari va subsidiya tizimlari (AQSh, Germaniya), yashil banklar va fondlar tashkil etish (Green Investment Bank, UK) samarali qo'llaniladi [8-9]. Iqtisodiy islohotlar va davlat-xususiy sheriklik platformasining kengayishi, yashil energiya strategiyasining qabul qilinishi va xalqaro moliyaviy institutlar bilan faol hamkorlik orqali O'zbekistonda yashil moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish mumkin [1, 12-13].


O'zbekistonda so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot yo'nalishidagi investitsiyalar hajmi barqaror o'sib bormoqda. 2020-yilda ushbu sohadagi jami investitsiyalar 2 350 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 5 650 mlrd so'mgacha yetgan.

Davlat investitsiyalari hajmi har yili oshib bormoqda. 2020-yildagi 1 200 mlrd so'mdan 2023-yilda 2 800 mlrd so'mga yetgani bu yo'nalishga davlat tomonidan katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Xususiy sektor ishtiroki ham o'sayotgan bo'lsa-da, uning ulushi hanz past darajada. 2020-yilda atigi 350 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 1 100 mlrd so'mga yetgan. Bu esa, xususiy investorlarda hali ham ekologik loyihalarga nisbatan xavotir va ishonchsizlik mavjudligini anglatadi. Xalqaro moliyaviy institutlardan jalb qilinayotgan mablag'lar esa 2020-yildagi 800 mlrd so'mdan 2023-yilda 1 750 mlrd so'mgacha oshgan. Bu O'zbekistonning xalqaro moliyaviy tuzilmalar bilan hamkorlik doirasida muvaffaqiyatli ishlayotganini ko'rsatadi.



1-rasm. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga yo‘naltirilgan investitsiyalar (mlrd so‘m)⁷⁸

Ushbu raqamlar asosida xulosa qilish mumkinki, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan moliyaviy oqimlar ortib bormoqda, biroq bu oqimlarning asosiy qismi davlat va xalqaro tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Xususiy sektorning ulushi nisbatan kamligi esa mavjud moliyalashtirish mexanizmlarining biznes subyektlari uchun yetarlicha qulay emasligini ko‘rsatadi.



2-rasm. O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish ulushi umumiy investitsiyalarda (%)⁷⁹

⁷⁸ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi. (2023). Yashil investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar: Tahliliy hisobot. – Toshkent, 35 b.

⁷⁹ Yashil iqtisodiyot platformasi. Manba: <https://green.imv.uz/uz/>

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda umumiy investitsiyalar tarkibida yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan mablag'lar ulushi yil sayin ortib bormoqda. Bu ijobiy o'zgarish mamlakatda ekologik barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish kabi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor ortib borayotganini ko'rsatadi. 2020-yilda yashil loyihalar umumiy investitsiyalarning atigi 4,2% ini tashkil qilgan, 2021-yilda bu ko'rsatkich 6,8% gacha oshgan, 2022-yilga kelib 8,5%, 2023-yilga 10,1% gacha va 2024-yilda esa 12,3% gacha yetgan [14].

Bu o'sish tendensiyasi davlat siyosati va xalqaro tashabbuslarning iqtisodiyotga ta'siri ortib borayotganini anglatadi. Biroq, o'sish jadal rivojlanmayabdi bu esa mavjud salohiyat to'liq ishga solinmayotganini anglatadi. Shuningdek, bu ko'rsatkichlar boshqa mamlakatlar bilan solishtirilganda ancha past. Shu sababli, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali xususiy sektorni faolroq jalb qilish, yashil obligatsiyalar va grant mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyotga o'tish bugungi kunda global iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar va resurslar tanqisligi sharoitida muqarrar yo'nalish sifatida shakllanmoqda. O'zbekiston ham bu boradagi islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda mamlakatda yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi ortib bormoqda. Biroq, moliyalashtirish mexanizmlarida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular biznes subyektlarining ekologik loyihalardagi ishtirokini cheklab qo'yimoqda.

2023-yil yakunlariga ko'ra, yashil loyihalarni moliyalashtirishning 50 foizi davlat byudjeti hisobidan amalga oshirilgan bo'lsa, xususiy sektor ulushi atigi 19 foizni tashkil etgan (1-rasm). Bu esa, moliyaviy resurslar konsentratsiyasi asosan davlat va xalqaro institutlarga to'g'ri kelayotganini, xususiy kapital esa bu jarayonda yetarlicha faollik ko'rsatmayotganini bildiradi. Shuningdek, 2020–2023 yillar davomida yashil moliyalashtirishning umumiy investitsiyalardagi ulushi 4,2 foizdan 10,1 foizgacha oshgan (2-rasm), ammo bu raqam hali ham yetarli emas. Davlat tomonidan ayrim dasturlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, xususiy sektorni jalb etish, moliyaviy instrumentlar xilma-xilligini ta'minlash va institutsional infratuzilmani rivojlantirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ushbu tahlillar asosida amaliy takliflarni berish mumkin. Masalan, xususiy sektorga yashil investitsiyalar kiritgan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar berish tizimini joriy etib va yashil loyiha uchun foiz stavkasi past bo'lgan kredit liniyalari yo'lga qo'yilishi natijasida yashil moliyalashtirishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni yaratish mumkin. O'zbekistonda hali to'liq yo'lga qo'yilmagan yashil obligatsiyalar bozorini yaratish bo'yicha normativ-huquqiy baza ishlab chiqilishi zarur. Bu orqali ekologik loyihalarga uzoq muddatli va barqaror moliyaviy resurslar jalb qilish imkoniyati yaratiladi. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish ham bu borada ajoyib taklif bo'lishi mumkin. Bunda yashil fondlar (masalan, Green Climate Fund, Global Environment Facility) bilan ko'proq qo'shma loyihalar amalga oshirilishi kerak, xalqaro grant va texnik yordamlar biznes subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilishi lozim.

Biznes vakillari uchun ekologik loyihalarni ishlab chiqish va moliyalashtirish bo'yicha maxsus treninglar, metodik qo'llanmalar va maslahatchilar tarmog'i tashkil etilishi, mahalliy banklar va moliyaviy institutlar yashil moliyalashtirish bo'yicha malakasini oshirishlari kerak. Bu bilan axborot va maslahat tizimini rivojlantirish mumkin. Qolaversa, yashil loyihalarning samaradorligini baholash tizimini joriy etish ham muhim taklifdir. Har bir ekologik loyiha uchun ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik samaradorlik indikatorlari ishlab chiqilishi lozim va bu indikatorlar asosida moliyalashtirish prioritetlari aniqlanishi kerak.

Yashil iqtisodiyotga o'tish faqat ekologik jihatdan emas, balki iqtisodiy jihatdan ham O'zbekiston uchun muhim strategik yo'nalishdir. Biroq bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun moliyalashtirish tizimini keng qamrovli tarzda isloh qilish, xususiyl sektorini faol jalb etish va xalqaro tajribalardan foydalanish zarur. Yuqoridagi takliflar asosida mavjud mexanizmlarni takomillashtirish orqali yashil iqtisodiyot sari harakat sezilarli darajada tezlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2019–2030 yillarda "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategiya: PQ–4477-sondagi qaror, 04.10.2019. Lex.uz [Elektron resurs]. Manba: <https://lex.uz/docs/-4539502> (25.04.2025).
2. Asqarova M., Jamolov J.J., Xadjayev X.S. Yashil iqtisodiyot: Darslik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. – 256 b.
3. OECD. Financing Uzbekistan's Green Transition. OECD Publications [Elektron resurs]. – 2023. – Manba: https://www.oecd.org/en/publications/2023/12/financing-uzbekistan-s-green-transition_6ebf6b94.html (25.04.2025).
4. G'ulomova R. O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tishi: muammolar va imkoniyatlar. CyberLeninka [Elektron resurs]. – 2024. – Manba: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonning-yashil-iqtisodiyotga-o-tishi-muammolar-va-imkoniyatlar-1/viewer> (25.04.2025).
5. UNEP. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – United Nations Environment Programme, 2011. – Manba: <https://www.unep.org> (25.04.2025).
6. OECD. Developing Sustainable Finance Definitions and Taxonomies. – Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2020. – Manba: <https://www.oecd.org> (25.04.2025).
7. European Commission. The European Green Deal. – Brussels, 2019. – Manba: https://ec.europa.eu/info/publications/communication-european-green-deal_en (25.04.2025).
8. World Bank. Financing Climate Action: A Guide for Policymakers. – Washington, D.C.: World Bank, 2020. – Manba: <https://www.worldbank.org> (25.04.2025).
9. UNEP Finance Initiative. Rethinking Impact to Finance the SDGs. – 2021. – Manba: <https://www.unepfi.org> (25.04.2025).

10. Mamatov Sh.A. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №5. – B. 44–49.
11. Karimov A.X., Ergashev O.A., Abdullaeva M.B. Yashil iqtisodiyot sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning o‘ziga xos jihatlari. O‘zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy hayoti. – 2022. – №2. – B. 25–31.
12. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi. Yashil investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar: Tahliliy hisobot. – Toshkent, 2023. – 35 b.
13. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. 2023–2030 yillarga mo‘ljallangan Yashil energiya strategiyasi. – Toshkent, 2023.
14. Yashil iqtisodiyot platformasi. [green.imv.uz](https://green.imv.uz/uz/) [Elektron resurs]. – Manba: <https://green.imv.uz/uz/> (25.04.2025).